



BOLA RIVOJLANISHIDA MUHITNING TA'SIRI

Ilmiy rahbar: Ermatova Mehriniso

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qutuvchisi

DTPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'naliши

2-bosqich 2-MT-22-guruh talabasi

Asatova Sevinch

Annotatsiya: *Bolalarning rivojlanishi bu eng murakkab jarayon hisoblanadi. Bola rivojlanishida turli xil omillar ishtirok etadi. Bularidan eng asosiysi muhit hisoblanadi. Muhit ham o‘z o‘rnida bir necha omillarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Muhit, tabiiy muhit, oila muhiti, ijtimoiy muhit, bola rivojlanishi;*

KIRISH:

Inson rivojlanishi bu murakkab jarayon hisoblanadi. Inson rivojlanishi asosan tashqi va ichki kuchlar ta'sirida bo'ladi. Tashqi ta'sir omillariga tabiiy va ijtimoiy muhit kiradi. Ichki omillarga biologik va irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlari foydalilanadi. Bularga (o‘yin, sport, mehnat va hokazo.) muloqot (Ota-onas, do'stlari, tengdoshlari) misol bo'ladi. Bola rivojlanishida asosiy vosita bu muhit hisoblanadi. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuyi tushunildi. Muhit ham bir necha turlarga bo'linadi.

- Tabiiy muhit.
- Oila muhiti.
- Ijtimoiy muhit.

Tabiiy ya‘niy geografik muhit bu insonning hayot tarzidagi xarakteri va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Masalan, Janubda yashaydigan inson, Shimolda yashaydigan insondan ko'rinishi, xarakteri va dunyoqarashi bilan ajralib turadi.

Oila muhiti - bu muhit Inson shakllanishiga muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko‘z ochib avvalo Ota-onasini, bobo-buvisini ya‘niy oila a'zolarini ko‘radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo‘lsa axloqi go'zal va fazilatli bo‘lib ulg‘ayadi. Bola nihol kabidir uni qanday parvarish qilsak mevasini ham shunday olamiz, daraxtning hosildor bo‘lib yetishishi eng avvalo bog'bon parvarishiga bog'liqdir. Shuday ekan bolalarni hali shakillanmasdan ijtimoiy muhitga kirmasligidan oilaviy sharoitda unga to‘g‘ri tarbiya berishimiz kerak bo'ladi.

Ijtimoiy muhit - ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy aloqa ya‘niy



insonlararo o'zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi,kerakli tarbiya va bilimlarni egallaydi.Jamiyatda ma'naviy muhit yaxshi,adolat ustuvor bo'lsa,inson faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi va aksincha holatlarda salbiy ta'sir ko'rsatadi.Demakki,insonning kamolotga yetishiga ta'lim-tarbiya,muhit va insoniyat muhim hisoblanadi.Nega bugungi kunda o'tmishda yashab o'tgan Imom Al Buxoriy,Beruniy,Alisher Navoiy,Zamahshariy,Farobiya va G'azzoliy kabi olimlarga o'xshagan insonlarni uchratmaysiz.

Chunki ularning irsiyati toza,Ota-onalari solih va soliha bo'lganlar,ular yashagan davrda ilm-ma'rifat va taraqqiyot o'zining cho'qqisiga chiqqan,ya'niy muhit yaxshi bo'lgan va eng asosiysi esa ajdodlarimizning ta'lim-tarbiyasiga ma'sul bo'lgan Ota-onalar va ustozlar o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishdan,tarbiyalarida nuqson bo'lмаган. Agar biz ham farzandlarimizning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillardagi nuqsonlarni bartaraf etsak,muhitni yaxshilasak albatta kelajak avloddan Buxoriy va Farobiya o'xshagan buyuk olimlar yetishib chiqadi.

XULOSA:

Xulosa qilib shuni aytish joizki barkamol shaxsni shakillantirish,kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalamog'imiz kerak.Bola rivojlanishiga qaysi ta'sir muhimroq,qaysisi yetarli va qaysisi yetarli emas har birini o'rganib chiqishimiz kerak.Bola rivojlanishida qaysi tomonlama bo'shliq bo'lsa uni kerakli ma'lumot Ota-onaning to'g'ri maslahati bilan to'ldirish kerak.Zero kelajak yoshlar qo'lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishanova (Rivojlanish psixologiyasi,Pedagogik psixologiya).
2. Xasanova.O.U. (Maktabgacha ta'lim pedagogikasi).